

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11322829>

MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA PEDAGOG KADRLARNING INNOVATSION SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH

Xudayberdiyeva Ozoda Jurabayevna

Namangan viloyati PYMO'MM Uzluksiz kasbiy ta'lismi tashkil etish
bo'limi boshlig'i

Maxmudov Doniyor Yakubovich

Namangan viloyat Pedagoglarini yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi
metodik xizmat bo'limi biologiya fani metodisti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda o'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyatining shakllanishi va rivojlanish jarayonini tahlil qilish, rahbar va pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimi, o'quv jarayonini samarali tashkil etish, pedagogik faoliyatida ta'lim va tarbiyaning eng samarali zamонави shakl, metod va vositalaridan unumli foydalana olish to'g'risida fikrlar yuritilgan.*

Kalit so'zlar: Innovatsiya, metod, boshqarish, bilim, malakasi, axborot, strategiya, taraqqiyot.

Аннотация: В данной статье анализируется процесс становления и развития инновационной педагогической деятельности учителя на сегодняшний день, а также система повышения квалификации руководителей и педагогов, эффективная организация образовательного процесса, эффективное использование наиболее эффективных современных форм, методов и средств обучения и обучения в педагогической деятельности.

Ключевые слова: инновация, управление, знание, навыки, информация, стратегия, развитие, педагог.

Annotation: In this article, the formation and development process of a teacher's innovative pedagogical activity in today's world is analyzed. The system of improving the skills of leaders and pedagogical personnel, organizing effective teaching processes, and utilizing the most effective modern forms, methods, and tools of education and upbringing in pedagogical activities are discussed.

Key words: innovation, management, knowledge, skills, information, strategy, development, pedagogue.

KIRISH.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6 noyabrdagi ”O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g“risida” PF-6108-sen Farmonida ”Ilm-fan sohalarini takomillashtirish, jamiyatimizda o‘qituvchi va pedagog xodimlar, ilmiy va ijodkor ziyolilarga bo‘lgan hurmat-e’tiborni yanada oshirish, o‘quvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish”masalalari, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g“risida”gi 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan O‘RQ-637-sen Qonunida shaxsni har tomonlama kamol toptirishga, ta’lim oluvchilarda bilim, malaka, ko‘nikmalarni, saviyani shakllantirishga va ularning qobiliyatini rivojlantirishga, o‘quv rejalarini va o‘quv dasturlarini joriy etish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o‘qitishning innovatsion shakllari va usullari, axborot-kommunikatsiya va kredit modul tizimiga asoslangan o‘qitish texnologiyalarini keng qo‘llash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilab qo‘yilgan¹.

2020 yil 24 iyulda imzolangan “Innovatsion faoliyat to‘g“risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni esa innovatsion faoliyat sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari sifatida innovatsion rivojlanishning huquqiy jihatdan tartibga solinishini ta’minalash; ustuvor yo‘nalishlarni belgilash; zarur shartsharoitlar va infratuzilmani yaratish; innovatsion faoliyat sub’ektlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish; respublika, tarmoq va hududiy davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish; investitsiyalarni jalb etishga ko‘maklashish; davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish; kadrlarni tayyorlashni, qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni tashkil etish; xalqaro hamkorlikni rivojlantirishni belgilab berdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

Pedagogikada innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion pedagogika, ta’limda innovatsion jarayonlarni boshqarish kabi tushunchalar XX asrning 60-yillarda dastlab, AQSH va G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida “ta’lim texnologiyasi” tushunchasi e’tirof etilgan vaqtida paydo bo‘ldi.

Bu esa o‘qituvchining innovatsion pedagogik faoliyatining shakllanishi va rivojlanish jarayonini tahlil qilish imkonini berdi. O‘qituvchi innovatsion faoliyatining umumiyligi va alohida jihatlarini K.Angelovskiy, G.I.Gorskaya, V.A.Kan-Kalik, S.L.Kuzmina, V.A.Slastenin, L.M.Fridman kabi olimlar o‘zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida yoritib berdilar. Mamlakatimizda pedagogik innovatsiyani rivojlantirish muammolari ustida pedagog olimlardan N.Azizzo‘jaeva, J.G.Yo‘ldoshev,

¹ O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g“risida”gi Qonuni. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-sen; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-sen, 12.10.2021 y., 03/21/721/0952-sen)

B.Farberman, U.Nishonaliev, N.Sayidahmedov, M.Ochilovlar ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. I.SHumpater va N.Kondratevlar “Innovatsiya” tushunchasining ilk va ulkan nazariyachilar hisoblansalar, K.Angelovskiy, V.A Slastenin va V.I.Slobadchikovlar o‘z ilmiy tadqiqotlarida innovatsion faoliyat pedagogik faoliyatning alohida shakli ekanligini isbotlashga harakat qildilar hamda bu borada muayyan natijalarga erishgan olimlar, deb tan olinadilar.

“Innovatsion faoliyat” tushunchasini tahlil qilar ekanmiz: G.A.Mkritichyanning bu haqdagi fikri diqqatga sazovar:-“Pedagogik tajriba-sinov faoliyatining 3 ta asosiy shaklini ajratish mumkin: xususiy tajriba, tajriba-sinov ishi, o‘qituvchining innovatsion faoliyati. Pedagogik faoliyatda innovatsiyalar qancha ko‘p bo‘lsa, o‘qituvchi xususiy eksperimentni shuncha yaxshi tushunadi”.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Bugunning talablariga javob berish uchun rahbar va pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimi, avvalo, ta’lim tizimida yuz berayotgan muammo va jarayonlarga mos, asoslangan va yetarli darajada ishonchli metodologik bazani tanlashi maqsadga muvofiq.

Muntazam kasbiy mahorati, bilimi, ko‘nikmalarini yangilab borish, yuqori samarali yangi axborot-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalarini, fan-texnika yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish;

Malaka oshirish tiziminining asosiy konseptual rivojlanishi yo‘nalishlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirish usullari bo‘yicha aniq takliflar ishlab chiqish zarurati mavjud.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash jarayonini ilg‘or xorij tajribasi (Singapur, Germaniya, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya, Yaponiya) asosida takomillashtirish, kasbiy faoliyatda zarur bo‘lgan bilim, malaka va ko‘nikmalarning hayot davomida egallanishini qo‘llab-quvvatlovchi va rag‘batlantiruvchi uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimini yaratish maqsadga muvofiq.

XXI asr ko‘nikmalari hozirgi kunda butun dunyo bo‘ylab ta’lim tizimlarida ta’lim maqsadlari sifatida mustahkam o‘rnashgan, ammo ularning o‘qitish va baholash amaliyotida amalda qo‘llanilishi ortda qolmoqda. To‘g‘ri javob berishdan ko‘ra, qanday qilib javob olishni birinchi o‘ringa qo‘yadigan ushbu o‘quv maqsadlari ta’lim tizimlari oldiga yangi muammolarni qo‘ymoqda va bunga yangi yechimlar izlanmoqda.

Bu esa pedagogik mahoratini takomallashtirish uchun o‘qituvchi jahon va milliy miqyosdagi zamonaviy o‘qitish metodlari haqida xabardor bo‘lishi hamda o‘z ustida ishlashi darkor. Darhaqiqat, o‘qituvchilik kasbida chuqur bilimdonlik, zukkolik o‘z kasb mahoratini muntazam shakllantirib borishga ishtiyoq bo‘lmash ekan, u yaxshi ustoz-o‘qituvchi bo‘la olmaydi. Hozirgi zamon o‘qituvchisi o‘z mutaxassisligiga oid bilimlar bilan birga, pedagogik va psixologik bilimlarni, hamda turli fan yo‘nalishlari bo‘yicha maxsus bilimlarga ega bo‘lgan, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarni egallagan, ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatuvchi shaxsdir. Ushbu nuqtai nazardan hozirgi kunda o‘qituvchilardan quyidagi burch va mas’uliyatlar talab qilinadi;

- o‘qituvchi tabiatan bolalarni seva olishi, o‘z mehrini, his-tuyg‘ularini har lahzada o‘quvchilar ichki dunyosi bilan bog‘lay olishi, ularning ham mehriga, hurmatiga sazovor bo‘lishi kerak;

- jamiyat ijtimoiy hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab etishi va ularga xolisona baho berib, bu borada o‘quvchilarga to‘g‘ri, asosli ma’lumotlarni doimiy bera olishi lozim;

- zamonaviy ilm-fan, texnika va axborot-kommunikatsion texnologiyalari yangiliklaridan va yutuqlaridan xabardor bo‘lishi;

- o‘z mutaxassisligi bo‘yicha chuqur va puxta bilimga ega bo‘lishi, barcha fanlar integratsiyasini o‘zlashtirib borishi, bunda o‘z ustida tinimsiz ilmiy izlanishlar olib borishi;

- pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ta’lim-tarbiya faoliyatini tashkil etishi;

- kasbiy faoliyati jarayonida yuksak darajadagi pedagogik mahorat, kommunikativ layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo‘l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, takt) qoidalarini chuqur o‘zlashtirib borishi;

- pedagogik faoliyatida ta’lim va tarbiyaning eng samarali zamonaviy shakl, metod va vositalaridan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo‘lishi shart.

Ta’lim tizimidagi har qanday yangilik innovatsiya bo‘la olmaydi. SHu sababli “novatsiyava”, “innovatsiya” tushunchalari o‘rtasidagi asosiy farqlarni ko‘rsatib o‘tish zarur. Buning uchun islohot faoliyatining aniq shakli, mazmuni va ko‘lami asos bo‘lib xizmat qiladi.

Innovatsianing amaliyotga kiritilishi innovatsion jarayonlarda amalga oshiriladi. Innovatsion jarayon deb innovatsion o‘zgarishlarga tayyogarlik ko‘rish va uni amalga oshirish jarayoniga aytildi. I.P.Podlsasiy pedagogik tizimda innovatsion o‘zgarishlarning yo‘nalishlarini o‘rganish asosida quyidagilarni belgilab beradi:

- Pedagogik tizimning tamomila o‘zgarishi.

- O‘quv jarayonining o‘zgarishi;
- Pedagogik nazariyaning o‘zgarishi;
- O‘qituvchi faoliyatining o‘zgarishi;
- O‘quvchi faoliyatining yangilanishi;
- Pedagogik texnologiyaning o‘zgarishi;
- Mazmunning yangilanishi;
- SHakl, usul va ta’lim vositalarining o‘zgarishi;
- Boshqaruvning o‘zgarishi;
- Maqsad va natijaning o‘zgarishi.

Ta’lim jarayonidagi innovatsion o‘zgarishlar, ta’lim tizimiga har qanday yangilikning kiritilishi bevosita o‘qituvchi faoliyatini yangilash va o‘zgartirish orqali amalga oshirilishi ham muallif tomonidan qayd etilgan.

Ta’lim tizimidagi innovatsiyalar, ularni amaliyotga kiritish, innovatsion jarayonlarni boshqarishni tahlil qilish orqali innovatsion faoliyat tushunchasini ta’riflash imkoniyati paydo bo‘ldi. Innovatsion faoliyat – pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg‘a boshlovchi, taraqqiy ettiruvchi kuchdir.¹

“Innovatsion faoliyat – bu yangi ijtimoiy talablar bilan an’naviy me’yorlarning mos kelmasligi, yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan me’yorining mavjud me’yor bilan to‘qnashuvi natijasida vujudga kelgan majmuali muammolarni yechishga qaratilgan faoliyatdir”, - deb ta’kidlaydi V.I.Slobadchikov.

Innovatsion faoliyat bu amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo‘lib, ijtimoiy-madaniy ob’ekt sifatlarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy sub’ektlarning harakat tizimi bo‘lib, u ma’lum doiradagi muammolarni yechish qobiliyatigina emas, balki har qanday vaziyatdagi muammolarni yechish uchun motivatsion tayyorgarlikka ega bo‘lishdir. O‘qituvchi innovatsion faoliyatining markaziy masalasi o‘quv jarayonini samarali tashkil etishdan iborat.

Ta’lim jaryonlarini rivojlantirish bilan birgalikda xozirgi kun talablari oldida turgan dolzarb masala – kelgusidagi kasb egalarini, shu jumladan, bo‘lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatga tayyorlash, yosh avlodni ma’naviy tarbiyalash, intellektual jihatdan rivojlantirishda samaradorlikka erishishdir. Zero, faqat barkamol shaxsgina o‘zining intelektual, ma’naviy imkoniyatlarini to‘laqonli namoyon etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu ma’noda mamlakatimizda innovatsion jarayonlarni qiyosiy-tahviliy o‘rganish, amaliy tajribalarini tanqidiy mushohada qilish asosida umumlashtirish, bo‘lajak mutaxassislarning innovatsion faoliyatini to‘g‘ri tashkil qilish, uning istiqbol strategiyasini aniqlash imkonini beradi.

¹ Jumaniyozova Muhayyo Tojievna O‘QITUVCHILARNI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI Toshkent “Innovatsiya-Ziyo” 2023

XULOSALAR.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, ta'limning globallashuvi sharoitida o'qituvchilar faoliyatini zamon talablariga moslashtirish, ular o'rtasida raqobatga asoslangan mehnat muhitini vujudga keltirish uchun o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash dolzarb hisoblanadi va ta'lim islohotlari muvaffaqiyatini ochuvchi kalit vazifasini bajaradi.

O'quv faoliyatida foydalaniladigan o'quv-metodik manbalar, o'qituvchilar uchun chop etilgan qo'llanmalar mazmuniga innovatsiya, innovatsion faoliyatni tashkil etishga oid bilimlarni, innovatsion ta'lim elementlarini singdirish lozim.

Malaka oshirishning uzluksizligi va uzbekligini ta'minlash maqsadida o'qituvchilarning maktab sharoitida, o'z ustida mustaqil malaka oshirishlarini ta'minlash uchun mustaqil malaka oshirish dasturi va loyihasini to'la amaliyotga tatbiq etish hamda bu dasturlarning bajarilishiga erishish lozim.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021 y., 03/21/721/0952-son)
2. Mirziyoev SH.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –T.: O'zbekiston, 2021. -464 b.
3. Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna O'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning pedagogik asoslari. Toshkent "Innovatsiya-Ziyo" 2023
4. Umumi pedagogika. R. A. Mavlonova, N .H .Rahmonqulova, v.b - T.: "Fan va texnologiya", 2018, 528 bet.